
VILOYAT HOKIMI XAYRULLO BOZOROV TÜGIAD – TURKIYA YOSH ISHBILARMONLARI UYUSHMASI VAKILLARINI QABUL QILDI.

Uchrashuvda turk ishbilarmonlari tomonidan viloyatimizda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlar va loyihalar muhokama etildi.

Turkiyalik investorlar 2 kun davomida Ekoshahar, “Qo’qon” erkin iqtisodiy zonasi hamda bir qator korxonalarda bo’lib, viloyatimizning iqtisodiy-investitsiyaviy salohiyati bilan tanishishganligini ma'lum qilib, savdo va investitsiya tarmoqlari bo’yicha hamkorlik qilishga kirishish niyatida ekanliklarini qayd etdilar.

Samarali o’tgan uchrashuvda viloyatimiz hududida tibbiyot, raqamli ta’lim, mebelsozlik sohalarida investitsion loyihalarni amalga oshirish bo’yicha ham fikr almashildi.

Shuningdek, Farg’ona viloyatida ikki hudud tadbirkorlari uchun zarur bo’lgan Tadbirkorlar uyushmasini tashkil etish hamda turkiyalik tekstil sohasida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlarni Farg’onaga jalb qilish bilan bog’liq masalalar ham muhokama qilindi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-07 15:34:35